

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА .....	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) .....	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО’ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ .....	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О’ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI .....	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О’ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI .....	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О’ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI ....	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O’RGANILISH TARIXI .....	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR .....	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI .....	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР .....	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O’ZBEKISTONDA QORAKO’LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o’g’li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O’RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) .....	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo’latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO’NALISHLARI .....	81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ  
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzбек Azimjonovich*

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
UZBEKISTAN..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
XUSUSIYATLARI ..... 197-202

<i>Рахимов Бахромжон Ибрахимович</i> ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....	234-243
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i> XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON " TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION .....	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	283-287



**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELITIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI ..... 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... 386-390

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ..... 391-396

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Рузметов Хайрулла*

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ  
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ  
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... 403-410

*Abdubannayev Umidjon*

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА  
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА  
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли*

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ  
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA  
QARSHI KURASHISH BO'YICHA HORIIY TAJRIBA ..... 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ  
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ  
АСПЕКТЫ ..... 452-462

*Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич*

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... 463-469

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Xusanova Mohira*

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL ..... 535-539	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL ..... 540-545	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024  
**Accepted:** 5 November 2024  
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **THE REGULATORY AND LEGAL SOURCES OF RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND ITALY**

**Saidova Rakhima**

Teacher of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

**Abstract:** In this article, the establishment of bilateral relations with the Republic of Italy, one of the economically and culturally influential countries of the Western world, and the stages of its development, in the course of the formation of the regulatory and legal bases of the foreign political activity of the Republic of Uzbekistan, which was restored in 1991, state independence it is mentioned.

**Keywords:** foreign policy, G7, concept, memorandum, "Arab spring", economic cooperation, educational cooperation, European Union.

## **O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI**

**Saidova Raxima**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 1991 yilda davlat mustaqilligi qayta tiklangan O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari shakllanishi jarayonida G'arb dunyosining iqtisodiy va madaniy jihatdan nufuzli davlatlaridan biri – Italiya Respublikasi bilan ikki tomonlama munosabatlarining o'rnatilishi hamda uning rivojlanish bosqichlari xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi siyosat, G7, konsepsiya, memorandum, "arab bahori", iqtisodiy hamkorlik, ta'lim hamkorligi, Yevropa ittifoqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N06>

**Kirish.** Bugungi globallashuv zamonida har qanday mustaqil va suveren davlat tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarsiz o'z mavjudligini ta'minlay olmaydi. Tashqi dunyoda sizni na qadar tanisalar, na qadar mavjudligingizni va so'z sohibi ekanligingizni e'tirof etsalar u qalar borsiz. Bu bugun bor bo'lganimiz ko'p qutbli, mojaroli va ko'p qirrali munosabatlarga boy dunyo-iqtisodiyot tizimining o'zgaras qonuniyatlaridir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi tiklangandan so'ng dastlabki yillardan boshlab tashqi siyosatning ustuvor jihatlarini belgilashda G'arb dunyosi bilan hamkorlik qilishning muhim yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda [1: 191].

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, birinchi navbatda, xalqaro huquq sub'ekti sifatidagi o'rnini mustahkamlashga harakat qilib kelmoqda. Buni amalga oshirishda me'yoriy-huquqiy asoslar muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar,

xususan Yevropa qit'asida o'zining tarixi va madaniyati hamda iqtisodiy salohiyati bilan yetakchi mamlakatlardan biri hisoblangan Italiya Respublikasi bilan iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorligining me'yoriy-huquqiy asoslari ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab shakllantirilgan.

**Adabiyotlar sharhi.** O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tamal huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanib, yangi tahrirda qabul qilingan [5]. mazkur hujjatning IV bobi (Tashqi siyosat) 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin", tarzida o'z ifodasini topgan [3: 6].

O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillarini shakllantirishda navbatdagi qonunchilik hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 20-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" [5] gi 239-son, 1992-yil 25-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" [5] gi 244-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 769-son farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 16-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" [5] gi 140-son va 1996-yil 25-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida madaniyat, fan va turizm sohasida xalqaro hamkorlik boshqarmasini tashkil etish to'g'risida" [5] gi 335-son qarorlari hisoblanadi.

**Muhokama.** 2012-yil 10-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun [5], O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslarini me'yorga solishda muhim qadamlardan biri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur hujjatda tashqi siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri Yevropaning yetakchi davlatlari bilan, eng avvalo Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya Respublikasi bilan, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, savdo, investitsion va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish, yuksak texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash va madaniyat sohasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash belgilangan [4.13].

Ellararo munosabatlarda Yevropa Ittifoqining o'rni juda katta. Birinchi galda bu tashkilot demokratik davlatlar ittifoqi va iqtisodiy jihatdan dunyoda 2-3 o'rinda turuvchi markaz hisoblanadi. Bundan tashqari, Germaniya, Fransiya va Italiya G7 [7] a'zosi hisoblanadi. Shuning uchun birinchi ma'muriyatimiz davrida Italiya bilan ham hamkorlik aloqalarini o'rnatishga harakat qilingan. Lekin bu hamkorlik boshqa Yevropa davlatlariga qaraganda kech boshlangan [6]. Bu mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston rahbariyatining asosan GFR va Fransiya bilan aloqalar o'rnatishga intilgani, bilan izohlanadi. Bunda Italiyaning iqtisodiy jihatdan Fransiya va GFRan ancha orqada ekanligi, uning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni RF orqali o'rnatganligi, Italiyada hukumatlarning tez-tez almashib turishi, bu esa o'z

navbatida davlatning keng tashqi siyosat yuritishi qiyinlashtirgani hamda 2010-yilda boshlangan “arab bahori” sabab kelib chiqqan migratsiya inqirozi tufayli Italiyaning Sharq davlatlari bilan oʻta ehtiyotkor munosabatda boʻlgani kabi omillar muhim ahamiyat kasb etganligini taʼkidlash lozim.

Shunday boʻlsa-da, Italiya Respublikasi Oʻzbekiston mustaqilligini birinchilardan boʻlib tan olgan davlatlardan biri hisoblanadi. 1992-yilning 10-yanvarida Italiya Oʻzbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi va 1992-yilning 24 martida diplomatik munosabatlar oʻrnatildi [2: 374]. 1992-yil sentyabr oyidan boshlab Toshkentda Italiya elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda. 1998-yil yanvar oyidan boshlab esa Rimda Oʻzbekiston diplomatik vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda [7].

2021-yilga qadar Oʻzbekiston va Italiya Respublikalari oʻrtasida toʻrt marta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirilgan.

1996-yil iyun oyida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Italiya Respublikasiga oʻzining birinchi rasmiy tashrifini amalga oshirgan edi [10]. 1997-yil may oyida Italiya Respublikasi prezidenti Oskar Skalfaro hamda oʻsha yili sentyabr oyida Italiya Respublikasi bosh vaziri Romano Prodi Oʻzbekistonga kelgan [10].

2000-yil noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Italiya Respublikasiga ikkinchi rasmiy tashrifi amalga oshirildi [10]. Mazkur tashriflar Oʻzbekiston va Italiya oʻrtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga chiqishida omillar hisoblanadi.

Italiya Respublikasi bilan aloqalar 1996-yilda Florensiya shahrida imzolangan Yevropa Ittifoqi va Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasidagi hamkorlik bitimi asosida huquqiy asosini topgan va keyingi yillarda turli sohalarda rivojlanib borgan [6].

Ikki davlat oʻrtasida 1997-yil 3-mayda tuzilgan Oʻzaro munosabatlar tamoyillari toʻgʻrisidagi qoʻshma deklaratsiya hamda 1997-yil 17-sentyabrda kelishilgan Oʻzbekiston va Italiya oʻrtasidagi Doʻstlik va hamkorlik shartnomasi asosida 22 ta hujjatdan iborat, jumladan: 1 ta davlatlararo shartnoma, 10 ta hukumatlararo bitim, 3 ta idoralararo kelishuv va 8 ta boshqa huquqiy bazalar asosida hamkorlik qilinmoqda [8].

Italiya Oʻzbekistonning Yevropa qitʼasidagi eng muhim hamkorlaridan biridir. Keyingi yillarda siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, energetika, madaniy-gumanitar sohalardagi oʻzaro hamkorlik ancha faollashdi. Oʻzbekiston va Italiya Respublikalari BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda [9].

2011-yildan boshlab Italiya parlamenti Deputatlar palatasi va Senati bilan hamkorlik qilish maqsadida Oliy Majlisda Qonunchilik palatasi va Senatning deputatlik guruhlari faoliyat koʻrsatmoqda [10].

2012-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Italiya parlamenti Deputatlar palatasi oʻrtasida hamkorlik toʻgʻrisidagi memorandum imzolangan edi [10].

Lekin xolislik nuqtai-nazaridan qaraganda, Oʻzbekiston va Italiya Respublikalari oʻrtasidagi munosabatlarning rivoji 2017-yilgacha bir tekisda boʻlmagan. Masalan, 2000-yillar boshlarida Oʻzbekiston Respublikasi AQSh va Gʻarb davlatlari, xususan Italiya bilan ham bilan juda yaqin munosabatda boʻlgan boʻlsa, 2005-yildan keyin Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan Italiya bilan ham aloqalar turgʻunlik bosqichiga kirib qolgan edi. Umuman olganda, 2017-yilgacha Oʻzbekistonning Italiya bilan aloqalari oʻta yaqin ham emas, oʻta uzoq ham boʻlmagan [6].

So'nggi yillarda O'zbekiston va Italiya Respublikalari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro va ko'ptomonlama hamkorlikda sezilarli yutuqlarga erishdi. Parlamentlar, vazirliklar va idoralar, ishbiarmon va ilmiy-akademik doiralar, shuningdek, mintaqalar o'rtasidagi yuqori darajadagi va nufuzli aloqalar sezilarli darajada jonlandi va doimiy tus oldi.

2018-yil noyabr oyida O'zbekistonga tashrif buyurgan Italiya tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri o'rinbosari Manlio di Stefano O'zbekistonga tashrif buyurgan edi. U Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik darajasida gapirar ekan, ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi strategiya ustida ish olib borilayotgani va shubhasiz, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim davlatlardan biri ekanligi, shu ma'noda, Italiyaning O'zbekiston bilan barcha sohalarda o'zaro foydali hamkorlikni yo'lga qo'yishdan manfaatdor ekanligini hamda bunda hukumatlararo ishchi guruh faoliyati muhim o'rin tutishini ta'kidlagan edi [11].

**Natijalar.** 2019-yilning 21-24-noyabr kunlari Lombardiya viloyati gubernatori A.Fontananing O'zbekistonga tashrifi tashkil etildi [10].

2020-yil 20-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Parlamentlararo do'stlik guruhining parlament quyi palatasi Spikeri o'rinbosari Narimon Umarov boshchiligidagi Italiya parlamenti bilan "Italiya – Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi raisi Simone Surianoning ishtirokida birinchi onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi [12].

O'zbekiston Respublikasi va Italiya Respublikasining diplomatik vakolatxonalari rahbarlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari A. Saidov ham ishtirok etgan mazkur uchrashuv davomida dunyoda koronavirus tarqalishining ko'lam haqida tashvishlanarli holat kuzatilayotgani bildirildi. Tomonlar bir-birlariga ushbu global tahdidga qarshi kurashish uchun O'zbekiston va Italiyada ko'rilayotgan choralar to'g'risida ma'lumot berishdi. Pandemiyaning salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan koronavirusga qarshi kurashda parlament a'zolarining alohida o'rni ta'kidlandi. shuningdek, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikda erishilgan natijalar, parlamentlararo muloqotni rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar doirasida tomonlarning o'zaro yordamini ta'minlash, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-gumanitar aloqalarni o'rnatish va mustahkamlash masalalariga alohida urg'u berildi [9].

2021-yildan Florensiyaning Toskana va Umbriya regionlarida, 2023-yildan esa Milanning Lombardiya va Liguriya regionlarida O'zbekiston faxriy konsulliklari faoliyat ko'rsatmoqda [8].

2022-yildan boshlab Italiya Respublikasining Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekistondagi faolligi osha boshladi. Buning asosiy omillari o'laroq 2022-yil 24-fevralda boshlangan RF va Ukraina o'rtasidagi keng ko'lamli urush harakatlari, Markaziy Osiyoda XXR ta'sir doirasining kengayishi hamda 2022-yilda Italiyada Jordja Meloni boshchiligidagi o'nglarning hokimiyat tepasiga kelishi va bu hukumatning pragmatik tashqi siyosat yuritayotganini ko'rsatish mumkin.

2023-yil aprel oyida Italiya parlamentida "Italiya-Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi tashkil etildi [10]. 2023-yil 29-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Italiya poytaxti Rim shahrida "O'zbekiston va Italiya: hamkorlikning yangi qirralari" mavzusidagi davra suhbatida ishtirok etdi. Mazkur tadbir Italiya Tashqi ishlar vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi mamlakatning yetakchi tahliliy va tadqiqot tuzilmalaridan biri

bo'lgan Italiya xalqaro tashkilotlar jamiyati bilan hamkorlikda o'tkazilgan bo'lib, unda Italiya TIV, turli davlat idoralari, yetakchi kompaniyalari, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi [14].

2023-yil 8-9-iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Italiyaga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi. Zero, ushbu tashrif o'zaro hamkorlikka intilish har ikki davlatda ham juda kuchli ekanini yaqqol namoyon etdi. Juda samarali o'tgan mazkur tarixiy tashrif davomida qator kelishuvlarga, aniq dastur va loyihalarga asos solindi [9]. Safar chog'ida Italiya Vazirlar Kengashi raisi Jorjia Meloni bilan ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida Qo'shma deklaratsiya imzoladilar. Shuningdek, ikki davlat vazirliklari o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 11 ta hujjat imzolandi. Huquqiy masalalar, sanoat mulki va qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlikka oid bitimlar shular jumlasidandir [15].

Xususan, O'zbekiston sanoati uchun Italiyadan uskunalar va ilg'or texnologiyalarni yetkazib berishni kengaytirish, energetika, transport, turizm infratuzilmasi, tibbiyot, farmasevtika, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, metallurgiya, qurilish materiallari, elektrotexnika, ishlab chiqarish bo'yicha foydali kelishuvlarga erishildi. Shuningdek, mebel, charm, to'qimachilik, ipak mahsulotlari, avtomobillar uchun ehtiyot qismlar, meva va sabzavot, chorvachilik, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishlarida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha katta qadamlar tashlandi [9].

Shuningdek, O'zbekiston Madaniy meros agentligi bilan Italiya Restavratsiya bo'yicha savdo agentligi, O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirish jamg'armasi hamda Italiya Madaniyat vazirligi o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risida memorandumlar, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2023-2024-yillardagi hamkorlik hamda 2026-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan madaniy almashinuv dasturlari imzolandi [16].

Italiya uchun O'zbekiston Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ko'prik hisoblanib, sheriklik nuqtai nazardan strategik ahamiyatga va katta salohiyatga ega davlat. Shu sababli Italiya mamlakatimizning zamonaviy rivojlanishida ishtirok etishni istaydi va ko'p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga tayyor. O'z navbatida, mamlakatimiz hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berayotgan, jamiyatimizning turli jabhalarida keng ko'lamli islohotlar tobora chuqurlashayotgan hozirgi muhim pallada Italiyadek qudratli davlat bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish O'zbekiston xalqining milliy manfaatlariga mos tushadi [9].

2023-yil 10-noyabrda Italiya prezidenti Serjo Mattarellaning O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida amalga oshirilgan muzokaralar yakunida ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik va hamkorlikni nazarda tutuvchi qo'shma bayonot qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. Ular quyidagilar:

- diplomatik pasport egalarini viza talablaridan ozod qilish to'g'risida hukumatlararo bitim;
- diplomatik akademiyalar o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi anglashuv memorandum;
- xalq ta'limini rivojlantirish to'g'risidagi idoralararo anglashuv memorandum;
- fan, texnologiya va innovatsiya sohalarida hamkorlik to'g'risidagi idoralararo anglashuv memorandum;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida hamkorlik to'g'risida anglashuv memorandum [16].



**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Italiya Respublikasi G7, NATO va Yevropa Ittifoqining ko'p yillik a'zosi o'laroq O'zbekistonning G'arb, xususan Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlarida muhim o'ringa ega. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning tamallari davlat mustaqilligining dastlabki yillarida qo'yilgan bo'lib, bugungi kunga qadar O'zbekiston qonunchilik institutlari tomonidan qabul qilingan 20 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ikki davlat o'rtasida imzolangan kelishuvlar, shartnomalar va memorandumlar O'zbekiston-Italiya munosabatlarining mustahkam qonunchilik asoslariga ega ekanligining dalilidir.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. Ташкент. 2020. С.191
2. Новейшая история Узбекистана / Под ред. д.и.н., проф. М.А. Рахимова. Ташкент. 2020. С.372
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 6-бет;
4. Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти концепцияси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. – Тошкент, 2012. – № 9/1. 13-бет.
5. <https://lex.uz>
6. <https://www.xabar.uz>
7. <https://strategy.uz>
8. <https://kun.uz>
9. <https://parliament.gov.uz>
10. <https://daryo.uz>
11. <http://old.muslim.uz>
12. <https://adolat.uz>
13. [parliament.gov.uz](https://parliament.gov.uz)
14. <https://isrs.uz/uz>
15. <https://yuz.uz>
16. <https://www.gazeta.uz>

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).